

O‘ZBEK TILIDA “SUT” GASTRONOMIK KODI BILAN HOSIL QILINGAN FRAZEOLOGIZMLAR

Abduvaliyeva Nodira Alisherovna,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Xolikulova Muhayyo Davlatjon qizi,
Magistrant, Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada frazeologizmlar haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan bo‘lib, ularning og‘zaki nutqdagi o‘rni hamma ahamiyati haqida fikr yuritiladi shu bilan bir qatorda tilshunoslikka kirib kelgan “sut” gastronomik kodi haqida ham keng miqyosda mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Lingvomadaniy kod, frazema, frazeologizmlar, gastronomik kod, “sut” gastronomik kodi, etnolingvomadaniy gastronomik kod, glyuttonim belgilar.

KIRISH

O‘zbek tili juda boy til. Unda har qanday holatni his-hayajon, jahl, g‘azablanish va shu kabilarni bemalol aks ettirish mumkin. Bu jarayonni turg‘un birikmalar, iboralar bir so‘z bilan aytganda frazeologizmlar yanada ta’sirli va tushunarli bo‘lishiga ulkan hissa qo‘shadi. Frazeologizmlar turli madaniy xalq tillarida ham uchraydi. Quyida ular haqida kengroq tushunchaga ega bo‘lamiz.

Tilshunoslikda o‘tmishga, millatning madaniy semantikasiga, an‘analariga, urf-odatlariga, folkloriga va h.k.ga oid dalillarni to‘plash va saqlash osonroq, chunki bu bir tilning “kumulyativ” funktsiyasi bo‘lib, axborotni qayta ishlovchi element “milliy-madaniy komponent” deb ataladi. Frazeologiya – barcha standartlar va axloqiy tamoyillarning ajdodlardan meros bo‘lib qolgan kichik dunyosidir. Bu har qanday millatning o‘ziga xos uslubini ta’kidlaydigan milliy til hayotidir. Frazeologizmlar yordamida har qanday millatning madaniy “belgisi”ni payqash oson.

ASOSIY QISM

Gastronomik frazeologizmlarning lingvomadaniy kodini aniqlash orqali uning etnolingvomadaniy kodining bir necha ramzlari majmuini belgilash mumkin bo‘ladi. Agar kod muayyan funktsiyalarni bajaruvchi belgilar tizimi bo‘lsa, madaniy kod madaniyatning belgisi jihatida bilan etnolingvomadaniy gastronomik kodning shakllanishi etnik gastronomik madaniyatning tub-tubida ko‘p bosqichli xarakterni ifoda etgan holda glyuttonim belgilar tizimida amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda til-resurs nomlarida belgilar shakllanadi, ularning ma’nolari “yeyiladigan” – “yeb bo‘lmaydigan” qarama-qarshi binar kod bilan tartibga solinadi, bu jarayon antropologiyada Klod Levi Stross tomonidan gastronomik kodlashning asosi sifatida tasvirlangan.

№	Sut bilan bog'liq iboralar
1	Ona suti og'zimga keldi
2	Ona sutini oqlash
3	Ona sutiday halol
4	Ona suti og'zidan ketmagan
5	Oq sutini oqqa, ko'k sutini ko'kka sog'moq
6	Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi
7	Xom sut emgan banda
8	Yosin suti
9	Sut puli
10	Sutini pishirib ichgan
11	Sutdek oppoq
12	Sutdan oq, qordan toza

Yuqoridagi jadvalda o'zbek tilida sut gastronomik kodi bilan hosil qilingan 12 ta frazeologizm tahlil qilingan. Ulardan 10 tasida ona suti (83,3%), 2 tasida sigir suti (16,6%) nazarda tutilgan. O'zbek tilidagi sut gastronomik kodi bilan yasalgan frazeologizmlarning ingliz tilidagi muqobillik darajasi 58,3% tashkil qilgan. Ulardan 47,8% ingliz Yuqoridagi jadvalda o'zbek tilida sut gastronomik kodi bilan hosil qilingan 12 ta frazeologizm tahlil qilingan. Ulardan 10 tasida ona suti (83,3%), 2 tasida sigir suti (16,6%) nazarda tutilgan.

O'zbek tilidagi sut gastronomik kodi bilan yasalgan frazeologizmlarning ingliz tilidagi muqobillik darajasi 58,3% tashkil qilgan. Ulardan 47,8% ingliz tilida ham gastronomik kod yordamida, 42,8% esa sut birligi vositasida ifoda etilgan. Muqobillari topilmagan sut gastronomik kodli frazeologik lakunalar 41,6% tashkil etadi. 59 tahlilga tortilgan frazeologizmlardan "ona suti" komponentining (83%) o'zbek madaniyati uchun juda qadrli lingvomadaniy kod ekanligi ayon bo'ladi. O'zbek frazeologiyasida "sut" komponentining ko'pincha "ona" timsoli bilan qiyoslanganini ko'rish mumkin. Sut komponentli frazeologizmlarning aksariyati "ona suti" komponenti vositasida ifodalangan yoki shu ma'noda qo'llanilgan. O'zbek xalqi ona sutini azaldan Ollohning in'omi deb hisoblab kelgan. Zero, qadimda hech bir go'dak ona sutisiz omon qola olmas edi. Har qanday chaqaloq ona suti bilan ozuqlanib, o'sib ulg'ayadi. Shuning uchun ham ona suti har doim muqaddas hisoblanadi. Lingvomadaniy kod esa, tabiiy til timsoliga ega bo'lgan madaniy kod hisoblanadi. V.M. Savitskiy, G.M. Bovaeva va A.V. Olyanichlarning g'oyalariga ko'ra, etnomadaniy kod semiotik muloqot hodisasi sifatida tushuniladi. Umumiy etnomadaniy xotirada joylashgan semiotik

muloqot, muayyan xalq, millat va etnoslarning jamoaviy mentalitetidan paydo bo'lgan va jamiyat tomonidan qabul qilingan belgilardir.

Gastronomik turdagi belgilar semiotik va etnomadaniy xarakterga ega bo'lib, ushbu komponentli birliklar aniq madaniy semiotik ramzni ifoda etadi. Bu til egasining ongida muayyan assotsiatsiyani uyg'otgan etnomadaniy konnotatsiya bo'lib, uning semiotik integratsiyasi muayyan ijtimoiy-madaniy davomiylikka bog'liq bo'ladi.

Tarkibida "sut" gastronomik kodi ishtirok etgan frazeologizmlarni milliy-madaniy xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) mentalitetni ifodalovchi frazeologizmlar;
- 2) madaniy xususiyatni aks ettiruvchi frazeologizmlar;
- 3) diniy e'tiqod bilan bog'liq frazeologizmlar;
- 4) irim-sirimlarga oid frazeologizmlar;
- 5) geografik hudud bilan bog'liq frazeologizmlar;
- 6) tsivilizatsiyani aks ettiradigan frazeologizmlar.

Mentalitetni ifodalovchi frazeologizmlar. Lingvomadaniy tahlilning eng dastlabki paradigmasi bu mentalitet bo'lib, u jamiyat, millat yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati demakdir. Jumladan, *ona suti og'z(i)ga (bo'g'zi) keldi* iborasi faqat o'zbek mentalitetiga xos bo'lib, undan og'ir mehnatdan so'ng charchash, holdan toyish holatini tasvirlash uchun foydalaniladi: *Uchala cholni tutib qirg'oqqa olib chiqqunimcha ona sutim og'zimga keldi*. (A.Obidjon, Kasofati temirtak.). *Ona suti og'ziga keldi* frazeologizmi uzoq vaqt hordiqsiz mehnat qilishni bildirsa, ikkinchisi qattiq charchashni ifodalaydi.

Sut azaldan eng to'yimli ozuqa sanaladi, lekin uni suv bilan aralashtirib yuborilsa, sutning kuchi ketib, u to'yimlilik xususiyatini yo'qotadi. Iboraning semantikasi ana shu mantiqqa borib taqaladi.

O'zbek xalqi orasida sutga suv qo'shish haqida bir necha ibratli hikoyalar bo'lib ularda sutga suv qo'shish katta gunohligi uqtirilgan. Qancha go'daklar sut bilan o'sadi. Qancha bemorlar sutli ovqat yeb shifo topadi. Shuning uchun ham sutga suv qo'shib sotish qattiq qoralanadi. Hatto suv qo'shib sotilgan sut puliga Haj safariga borilsa, bu faqat baxtsizlik olib keladi deyishadi.

"Oxirgi tomchigacha siqib ol" iborasi, garchi, bu o'rinda "sut" komponenti mavjud bo'lmasa-da, "tomchi" biron bir suyuqlikni siqib chiqazish semasini ifodalagan. Qayd etilgan "sut" gastronomik kodli frazeologizmlar lingvojamoaning fikrlash tarzi, dunyoni qanday idrok etishi hamda til egasining mentaliteti haqida to'liq ma'lumot berishga xizmat qiladi.

Madaniy xususiyatni aks ettiruvchi frazeologizmlar. Ma'lumki, kishilik jamiyatining hayoti milliy qadriyatlar va odatlar bilan chambarchas bog'langandir. Binobarin, har bir lingvomadaniyatda milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettirgan iboralar shu xalqning o'ziga xos yashash tarzi va muayyan fazilatlarini aks ettiradi. Masalan, o'zbek tilida *ona suti og'zidan ketmagan* frazeologizmi o'zbeklarning o'ziga xos tabiatini ochib berishga yordam beradi: *Avvaliga hozirgi qizlar juda aqlli-da, ona suti og'zidan ketmagan-ku, manga aql o'rgatishinichi dedim*. (B. Ismoilzoda, Shirin va armonli kunlar).

Diniy e'tiqod bilan bog'liq frazeologizmlar. Qadimda olijanob dindor xonimlar bolasiga chaqaloqligidan *yosin suti* berishar edi. Ya'ni yangi tug'ilgan chaqalog'ini emizish vaqti kelganda, xuddi namozdan oldin tahorat olganday poklanib, "Bismilloh Yosin val – Qur'oni hakim" deb surani o'qib sut berar edilar. Mazkur odat ibratli dars sifatida bolani vatan, millat uchun foydali, qadri baland inson bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Irim-sirimlarga oid frazeologizmlar. O'zbek xalqi yo'qotilgan fursatni boy berilganligi va endi o'pkalanishning keragi yo'qligini bildirish uchun tabiiy jarayon "yomg'ir"dan foydalanadi: *o'tib ketgan yomg'irning ketidan o'pkalama* yoki *o'tgan ishga salovat*. Mazkur iboralar o'zbek millatining xotirjam va osoyishta tabiatini ko'rsatadi. Shuningdek, ular chuqur mazmunga ega bo'lib ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. O'zbek tilidagi ushbu ibora insonni kelajakka intilishga, olg'a qadam bosishga va o'tmishga achinmaslikka undaydi.

Geografik hudud bilan bog'liq frazeologizmlar. Xalqning geografik hududida kaptar va shunga o'xshash qushlarning keng tarqalganligidan darak beradi. O'zbek tilidagi muqobili *anqoning urug'i* bo'lib, xalq afsonasiga ko'ra, "anqo" Qof tog'ida yashaydigan bir qushning nomi bo'lgan. Ammo xalq oti bor, o'zi yo'q narsaga kinoya qilib "anqo" deydi. *Anqoning urug'i* iborasi ana shundan olingan. Iboraning o'zbek tilidagi muqobili mazmun hamda komponentlar jihatdan mos keladi.

Sivilizatsiyani aks ettiradigan frazeologizmlar. Sut gastronomik kodli frazeologizmlarning chog'ishtirma tahlili natijasida ingliz lingvomadaniyatida geografik hudud, tsivilizatsiya va irim-sirimlarga oid iboralarning faolligi, aksincha, o'zbek lingvomadaniyatida bu guruhdagi iboralarning uchramasligini qayd etish mumkin.

XULOSA

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek lingvomadaniyatida sut gastronomik kodli frazeologizmlarning aksariyati inson xarakterini tasvirlashga xizmat qiladi. Masalan, *sutdek oppoq* iborasi biror kimsa yoki narsaning beg'ubor va pokligini anglatadi. Odatda, inson xarakteri ko'pincha sutning tozaligi va oqligi bilan muqoyasa qilinadi. Shuningdek, *sutdek oppoq* iborasidan kishining begunoh ekanligini ko'rsatishda ham foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov A., Boltaeva B. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy va semantic pragmatik tadqiqi. Mongrafiya. – Toshkent, 2018
2. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019
3. M.D.Xolikulova. Boshlang'ich sinflarda frazeologizmlar. "Ilm-zakovatimiz senga, ona-Vatan!" Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Farg'ona, 2023-yil 25-aprel.
4. M.D.Xolikulova. Frazeologiyaning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. "Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!" Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Farg'ona, 2023-yil 25-aprel.